

## STRESS VA CHARCHOQNI BOSHQARISH USULLARI

Mirzayeva Go‘zaloy

**Kalit so`zlar:** *ruhiy faoliyat, charchoq, stress, yo`nalish, zaiflik, boshqarish, usul, psixologiya, mustahkamlash, natija.*

### KIRISH

Stress — organizmning tashqi yoki ichki ta’sirlarga (bosim, muammolar, o‘zgarishlar) javobi sifatida yuzaga keladigan psixofiziologik holat. Charchoq — uzoq davom etgan jismoniy yoki ruhiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan zaiflik, energiya kamayishi holati.

Pedagoglar, talaba va o‘quvchilar uchun stress va charchoq ta’lim jarayonida samaradorlikni pasaytiruvchi omil hisoblanadi.

Stress va charchoqni boshqarish usullarining asosiy yo‘nalishlari

Psixologik usullar

- Relaxatsiya texnikalari

Nafas olish mashqlari, meditatsiya, progresiv mushaklarni bo‘shatish.

- Pozitiv fikrlash va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish

Ijobiy fikrlarni shakllantirish, muvaffaqiyatlarni eslab, o‘zini qo‘llab-quvvatlash.

- Muammolarni boshqarish strategiyalari

Muammolarni tahlil qilish, ularni kichik qismga bo‘lish, rejalashtirish.

- Vaqtini samarali boshqarish

Vazifalarni prioritetlarga ajratish, dam olish va ishslash vaqtini muvozanatlash.

- Psixologik yordam va maslahatlar olish

Psixolog yoki murabbiy bilan suhbatlashish, stressni kamaytirish uchun maslahatlar olish.

Jismoniy usullar

- Jismoniy faollik

Yurish, sport, yoga kabi mashqlar stress darajasini kamaytiradi va energiyani tiklaydi.

- To‘g‘ri uyqu rejimi

Yetarli va sifatlari uyqu stress va charchoqni kamaytirishga yordam beradi.

- Sog‘lom ovqatlanish

Vitamin va minerallarga boy, balanslangan ovqat iste’moli organizmni qo‘llab-quvvatlaydi.

- Dam olish va bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish

Hobbi, tabiatda sayr qilish, musiqani tinglash.

Ijtimoiy usullar

- Oila va do‘sstar bilan muloqot

Qo‘llab-quvvatlash va ijobjiy muloqot stressni kamaytiradi.

- Ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish

Guruh mashg’ulotlari, klublar, jamoaviy tadbirlarda faol bo‘lish.

Pedagoglar uchun stress va charchoqni boshqarish bo‘yicha tavsiyalar

- O‘z vaqtida dam olish va ish rejimini muvozanatlash.

- Darslarni tayyorlash va o‘tkazishda yangi, qiziqarli metodlardan foydalanish.

- O‘quvchilar bilan ijobiy va konstruktiv muloqot o‘rnatish.

- Professional yordamga murojaat qilishdan qo‘rmaslik.

- Stressni kamaytiruvchi texnikalarni o‘rganish va amalda qo‘llash.

### XULOSA

Stress va charchoqni boshqarish insonning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i uchun juda muhim. Pedagogik faoliyatda bu ko‘nikmalar ta’lim sifatini oshirish, samaradorlikni saqlash va shaxsiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.